

**BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR VA ULARNING USMONIYLAR SALTANATIGA
TA`SIRI**

Mo'minova Gulchehrabonu

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti tarix fakulteti 3-bosqich
talabasi*

Annotatsiya : Maqolada Buyuk Geografik Kashfiyotlarning ijobiy hamda salbiy tomonlarini Usmoniylar imperiyasi misolida tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: Buyuk Geografik Kashfiyotlar, tamaki, soliq, Usmoniylar davlati, qahva, Murod 4, Xristofor Kolumb

Buyuk Geografik kashfiyotlar XV – XVII asr o`rtalarida yevropalik sayyoohlar tomonidan qilingan yirik geografik kashfiyotlar uchun berilgan ilmiy termin.

Tarix guvohki, har bir davlatning uzoq o`tmishlar davomida o`z savdo – iqtisodiy aloqalari va savdo yo`llari bo`lgan. Lekin ba`zi kashfiyotlar va ba`zi savdo yo`llarining ochilishi amaldagi savdo yo`llarining inqiroziga sabab bo`lgan. Bunga yaqqol misol tariqasida Buyuk Geografik Kashfiyotlar amalga oshirilib savdo karvonlari o`z o`rnini dengiz transportiga bo`shatib berishi natijasida, ming yillar davomida Sharq va G`arbni bog`lab turgan Buyuk Ipak Yo`li o`z faoliyatini yakunladi. Shu o`rinda ta`kidlash joizki, dengiz yo`llarining ochilishi tovar mahsulotlarining narxini tushishiga zamin yaratdi. Shu sababli ham bu yangi ochilgan yo`llar Yevropa davlatlari uchun ijobiy natijalarga olib keldi. Shunga qaramay ba`zi davlatlar uchun bir qancha salbiy oqibatlarni ham olib keldi. Bu gapimizning isbotini Usmoniylar sultanati misolida ko`rishimiz mumkin.

Usmoniylar sultonligi (1299-1920) madaniyati, urf-odati va an`analari o`ziga xos bo`lgan Musulmon Sharqidagi juda yirik sultanat edi. Ammo har qanday davlatning gullab yashnashi va inqiroziga ichki va tashqi omillar albatta o`z ta`sirini ko`rsatadi.

Ma`lumki, 1492- yilda Xristofor Kolumb Amerika qit`asini kashf etishi bilan Yevropa hududlariga hindularning tamaki mahsulotlari kirib kela boshladi. Bu yashil og`u qisqa vaqt ichida qit`ani zabit etib Usmoniylar davlatigacha kirib keldi. Savdogarlar Istanbul va boshqa shaharlarda emin-erkin o`z shaxobchalarida tamaki mahsulotlarini sotishar edi. Bunday shaxobchalar juda ko`payib ketdi.

Shuningdek G`arbni ziravorlar bilan ta`minlagan Sharqning iqtisodi bir qancha ziyonlarga uchradi. Xuddi shunday sabablarga ko`ra Usmoniylar sultanatida soliq tizimida bir qancha o`zgarishlar sodir bo`ldi. Soliqdagi o`zgarishlarning og`irligi , albatta oddiy xalq gardaniga tushar edi. Manbalardagi ma`lumotlarga ko`ra Buyuk Geografik Kashfiyotlarning dastlabki davralrida Usmoniylar imperiyasidagi 14 ta yirik shaharlarning aholisi 41% ga oshdi. Lekin bu ko`rsatgich keying davrlarda ancha pasaydi.

Shu bilan birga yuz yillar ilgari turk diyoriga kirib kelgan qahva ham mamlakatda tobora ko`payib bora boshladi. Shaharlarning turli burchaklarida qahvaxonalar ochilib,

ular tun-u kun ishlar edi. Unda turli tabaqaga mansub kishilar tundan to tong otgungga qadar qahva ichib, tamaki chakishar edi.

Odatda turli isyonlar va fitnalar aynan o`sha „tongotar” suhbatalar vaqtida uyushtirilar edi. Buni anglagan hukmdor va ulamolar tamakining shariat ahkomlariga zidligi haqida fatvo chiqartirdilar. Fatvoga ko`ra mamlakatning har bir burchagidagi chilimxona, qahvaxona hamda tamaki sotish shaxobchalari yopildi. Biroq bu moddalarga mukkasidan ketgan kishilar ossonlikcha vos kechisholmadi. Bunday kishilar uchun berilgan eng yengil jazo ularning qo`l-oyoqlarining sindirilishi edi.

Ushbu farmonlarni chiqargan shaxs sulton Ahmedxonning o`g`li sulton Murod IV (Murod ra`bi 1612-1640) edi. U o`zi chiqargan fatvoga xalq qanchalik riosa etayotganligini o`z ko`zlari bilan ko`rish uchun tunda shahar ko`chalaridan oddiy kiyimlarni kiyib sayr qilar edi. O`z fatvosiga bo`ysunmagan insonlarga ko`zi tushishi bilan ularni joyida qatl qildirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shuhrat Ergashev „Jahon tarixi” -T.,2013
2. Sarimsakov Abdilatip Abdiraximovich, Dexkanov Narimon Burxonjonovich „Jahon tarixi” -T., 2021
3. Faxriddin Zamon „Ko`sem”-T.,2018